

Date: 13th June-2026

TEXNIKUM TALABALARIGA INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

Nurullayeva Laylo Sayfullayevna

Toshkent turizm va ma`daniy meros texnikumi kasbiy kommunikatsiyada xorijiy til
fani o`qituvchisi

Nurullayevalaylo1982@gmail.com

Anotattiya Mazkur maqolada texnikum talabalariga ingliz tilini samarali o'qitish usullari tahlil qilingan. Xorijiy va mahalliy adabiyotlar asosida innovatsion metodlar va kommunikativ yondashuvlar o'rganilgan. Ingliz tili bilimlarini amaliyotga yo'naltirish orqali talabalar kasbiy tayyorgarligini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: texnikum, ingliz tili, innovatsion metodlar, kommunikativ yondashuv, kasbiy tayyorgarlik

Аннотация: В данной статье проанализированы эффективные методы преподавания английского языка студентам техникумов. На основе отечественной и зарубежной литературы изучены инновационные методики и коммуникативные подходы. Показаны пути повышения профессиональной подготовки студентов через практическое применение знаний английского языка.

Ключевые слова: техникум, английский язык, инновационные методы, коммуникативный подход, профессиональная подготовка.

Abstract: This article analyzes effective methods of teaching English to technical college students. Based on local and foreign sources, innovative techniques and communicative approaches are studied. The article shows ways to improve students' professional skills by applying English knowledge in practice.

Keywords: technical college, English language, innovative methods, communicative approach, professional training.

Kirish. XXI asr globallashuv jarayonida ingliz tili dunyo miqyosida xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya va turizm tili sifatida muhim o'rin egallab bormoqda. Ayniqsa, texnikumlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'zlashtirish nafaqat umumiy madaniy savodxonlik, balki kasbiy faoliyatda ham muvaffaqiyat qozonish uchun zarur ko'nikma hisoblanadi. Shu bois, texnikumlarda ingliz tili fanini o'qitish sifatini oshirish va unga zamonaviy metodik yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda yoshlarning chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini o'rganishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-maydagi "Chet tillarini o'rganishni ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori bu borada keng ko'lamli islohotlarni belgilab berdi. Ushbu hujjatda o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish orqali chet tillarni o'qitish samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan.



Date: 13th June-2026



Bugungi texnikum talabalari zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan, o'z kasbiy sohasida xalqaro me'yor va standartlarga mos ravishda muloqot qila biladigan mutaxassislariga aylanishlari kerak. Bu esa, ingliz tilini o'qitish jarayonini shunchaki grammatika va tarjima asosida emas, balki kommunikativ va kasbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan metodlar asosida tashkil etishni talab qiladi.

Texnikum sharoitida ingliz tilini o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar — talabalar motivatsiyasining pastligi, tilni amaliy qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligi va resurslar tanqisligi — zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'z darslarini talabalar kasbiy faoliyatiga bevosita bog'langan holda, real kommunikativ vaziyatlar asosida tashkil etishlari zarur.

Ushbu maqolada texnikum talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda samarali metodlar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari, shuningdek, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Tahlil natijalari texnikumlarda ingliz tilini o'qitish amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi va kelajakda raqobatbardosh, ko'p tilli mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratadi.

Adabiyotlar Tahlili. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv haqida Nunan o'z asarida chuqur tahlil qilgan. Unga ko'ra, o'quvchilar tilni grammatik qoidalar asosida emas, balki real muloqot orqali o'rganishlari kerak.

Larsen-Freeman esa ingliz tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadi. U, ayniqsa, rolli o'yinlar, muhokamalar va loyiha asosidagi ta'lim texnikum o'quvchilari uchun foydali ekanligini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlardan Islomov A. texnikum sharoitida ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan. U texnik sohalarga oid ingliz tilini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratishni taklif etgan.

Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholagan Prensky zamonaviy talabalar "raqamli tug'ilganlar" ekanligini va ta'lim jarayonida mobil ilovalar, interaktiv platformalar samarali ekanini ta'kidlaydi.

Xulosa. Bugungi kunda texnikum talabalarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda ingliz tilini samarali o'qitish muhim strategik vazifaga aylangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy grammatik tarjima metodlari zamonaviy talabalarni yetarli darajada motivatsiya qilmaydi. Shuning uchun ingliz tilini o'qitishda kommunikativ, interaktiv va innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish zarur.

Texnikum talabalari uchun ingliz tilini o'rganish nafaqat umumiy til bilimiga, balki ularning kasbiy sohadagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuning uchun darslarda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan topshiriqlar, loyihalar, rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi, ya'ni mutaxassislikka oid ingliz tilini o'qitish, texnikum sharoitida ayni muddaodir.

Dars jarayonida multimedia vositalaridan, mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish talabalarni faollashtiradi, ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilar mustaqil ravishda ham til ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Date: 13th June-2026

Tajribalar ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar natijasida talabalar muloqot qilishdan qo'rqmaydi, o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, kasbiy sohada ingliz tilidan bimalol foydalanadi. Loyiha asosida o'qitish esa ularni amaliy vazifalarni ingliz tilida bajarishga, jamoada ishlash va ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Shuningdek, darslarning qiziqarli va mazmunli tashkil etilishi, amaliyotga asoslangan o'qitish modeli talabalarni nafaqat ingliz tiliga, balki kasbiy sohasiga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, texnikum talabalariga ingliz tilini samarali o'qitish uchun:

- Innovatsion metodlar va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash,
- Kasbiy faoliyatga mos kommunikativ topshiriqlar asosida dars tashkil etish,
- Amaliy va real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish,
- O'quvchilarning mustaqil va faol ishtirokini rag'batlantirish zarur.

Bu yondashuvlar orqali texnikum bitiruvchilari xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ-5117-son, 2021-yil 6-may
2. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge University Press.
3. Galskova, V.G. (2000). *Sovremennaya metodika obucheniya inostrannym yazykam*. ARKTI.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Brown, H. D. (2001). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
6. Littlewood, W. (2004). *The Task-Based Approach: Some Questions and Suggestions*. ELT Journal.
7. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
8. Beatty, K. (2013). *Teaching & Researching: Computer-Assisted Language Learning*. Routledge.
9. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.
10. Дуолингo, Квизлет (onlayn manbalar).

